

MUMTOZ ADABIYOTDA TONG TASVIRI

Asadova Dilafruz Shirinboy qizi

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti

Markaziy Osiyo xalqlari tillari

va madaniyati instituti IV bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: dots. Muminova Dilorom

Annotatsiya: Ushbu maqolada mumtoz adabiyotimizda keng ko'lamda qo'llanilgan tasvir vositalaridan biri tong tasviri yoritib berilgan. Tabiat tasvirida kunning bir qismi bo'lgan tong ijodkorlar tomonidan yoritilishi va badiiy asarga ma'no-mazmun hamda shakliy jihati tahlilga tortiladi. Tong tasviri Xorazmiy, Saroyi va Xo'jandiyning asarlari misolida ifodalashga harakat qilindi. Shuningdek, qanday badiiy ma'no yuklanganligi va bu kabi ijodkorlar ijodining tasvir vositasi kabi timsollar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Xorazmiy, Saroyi, Xo'jandiy, Rauf Parfi, tong, sahar, hukmdor, sulton.

Abstract image: This article explores the depiction of dawn as one of the widely used artistic devices in our classical literature. In the description of nature, dawn—as a part of the day—is analyzed in terms of how it is portrayed by writers, as well as its semantic and structural significance within literary works. The image of dawn is examined through the works of Khorezmi, Saroyi, and Khojandi. Additionally, the artistic meanings attributed to it and the symbolic functions it serves in the творчество of such writers are revealed.

Keywords: Khorezm, Sarai, Khojandi, Rauf Parfi, dawn, sahar, ruler, sultan.

Аннотация: В данной статье рассматривается изображение рассвета как одного из широко используемых художественных средств в нашей классической литературе. В описании природы рассвет как часть суток анализируется с точки зрения его отражения в творчестве писателей, а также его смыслового и структурного значения в художественном произведении. Образ рассвета раскрывается на примере произведений Хорезми, Сарои и Ходжанди. Также выявляется художественная нагрузка и символическое значение данного образа в творчестве этих авторов.

Ключевые слова: Хорезм, Сарайи, Ходжанди, Рауф Парфи, рассвет, Сахар, правитель, султан.

Mumtoz adabiyot asrlar davomida insonning ruhiy olami, tabiat manzaralari va hayot falsafasini betakror ifoda etib kelgan. Ana shunday mavzular ichida tong tasviri

alohida o‘rin tutadi. Tong — yangilanish, umid va poklik ramzi sifatida qalam ahlining e’tiborini tortgan. Sharq adabiyotining zabardast namoyandalari o‘z asarlarida tongni nafaqat tabiat hodisasi, balki hayotning ma’naviy uyg‘onishi, qalbning ravshanlashuvi sifatida tasvirlaydi. Tong sahar chog‘ining tiniqligi, qushlarning sayrashi, ufqning ochilishi va quyoshning chiqa boshlashi shoirona badiiy vositalar orqali go‘zal obrazga aylangan. Mumtoz shoirlarning tong haqidagi tasvirlari ularning san’atkorlik mahoratini yaqqol ko‘rsatadi. Har bir shoir tongni o‘z davri ruhiyati, shaxsiy hissiyotlari va adabiy an’ana asosida badiiylashtirgan. Shu sababli ularning asarlarida tong manzarasi turli usullarda gavdalanadi.

Oltun qanotin ochti esa subh shunqari,
 Ko‘k ko‘lga botti jumla kavokib kabutari.
 Isfandiyori Rum chiqib tikti sa alam,
 Bo‘ldi ko‘rub hazimat ani Shom lashkari.
 To‘kti qirmizi qon oqitib charx tosina,
 Tunung yurak tamirin ochib subh nishtari.

Ushbu she’riy matnda tong tasviri mohirona ochib berilgan. Tong (subh) “shunqar”, ya’ni burgutga qiyoslanib, burgut oltin qanotlarini yozganda quyoshning chiqishi tasvirlanadi. Bu yerda shoir istiora san’atidan mohirona foydalanadi. Tunda olamni yoritib turgan yulduzlar “kabutar”ga, osmon esa “ko‘l”ga qiyoslanadi. Natijada tong otishi bilan kabutar – yulduzlar go‘yo osmon ko‘liga singib ketgandek tasvirlanadi. Keyingi misrada tong Isfandiyori Rumiya qiyoslanadi. Mashhur jangchi maydonga bayroq tikkanidek, tong ham zulmat ustidan g‘alaba qozonadi. Bu tasvirdan shoirning epik obraz yaratish mahorati yaqqol seziladi So‘nggi baytda esa tongda quyoshning qirmizi rangda chiqishi jonli manzara sifatida ochib beriladi. Quyoshning qirmizi nuri “qon to‘kish”ga o‘xshatiladi, tunning yuragini yoruvchi “nishtar” esa saharning yorug‘lik olib keluvchi kuchini ifodalaydi. Bu timsollarda zulmat va nur, kecha va kunduz qarama-qarshiligi o‘z badiiy yechimini topadi.

Soldi niqob chehradin ul turki xovari,
 Bo‘ldi yana jahon yuzi o‘ynatek ari.
 Tun nafasina urdi quyoshning shuoi o‘t,
 To‘ldi aning nasimi bilan ko‘k mijmari
 Qochti habash cheriki adam qal’asi taba,
 Chiqti esa ufuq qinidin subh xanjari.
 Anqosi ko‘k Qofining ochti ikkinchi bol,
 Yulduz tuyuri barchasi turdi ari-bari.
 Daryo‘ga cho‘kti, oy sadafdek ko‘rinmas ush,
 Sohilga tushti Zuhrau tiladi Mushtari.
 Sohiiy, qadahni sun dag‘i qilgil ravonakim,
 Bo‘ldi ravona ko‘k uza hurshid sog‘ari.

Avvalgi baytlarda tong sharqdan chiqqan “turk yigitiga” qiyoslanadi. Quyosh yuzidan niqobni ko‘tarib, olamni yoritishi natijasida jahon yuzi yana oynadek ravshan bo‘ladi. Bu tasvirdan shoirning isti‘ora va tashbeh san‘atidan foydalanish mahorati ko‘zga tashlanadi. Keyingi misralarda tun zulmatining “nafas”i quyosh nuri “olovi” orqali barham topadi, osmon esa mijmarga (gulxan) o‘xshab nur bilan to‘ladi. Bu ifoda tong va tunning qarama-qarshiligini yanada jonli qiladi. So‘nggi baytlarda tong “Isfandiyori Rum”ga qiyoslanadi. Mashhur jangchi maydonga bayroq tikkanidek, tong ham zulmat ustidan g‘alaba qozonadi. Bu tasvir epik obraz yaratish usulini yaqqol namoyon etadi. Ufqdan chiqayotgan tong “xanjar” sifatida talqin qilinib, tunni yorib tashlaydi. Samoviy jismlar ham badiiy obrazga aylantiriladi: oy tong otishi bilan “daryoga cho‘kkan sadaf”ga qiyoslanadi, Zuhra va Mushtari esa insoniylashgan holda, bir-biriga murojaat qiluvchi obrazlarda gavdalanadi. Bu yerda shoirning astronomik manzarani badiiylashtirishdagi san‘atkorligi ko‘zga tashlanadi.

So‘nggi misralarda esa lirizm kuchayadi. Shoir sohibxona ruhida saqiyga murojaat qilib, qadah uzatishini so‘raydi. Shu paytda ko‘kda ham quyosh “sog‘ar” – sharob qadahiga o‘xshab ko‘rinadi. Bu ifoda orqali tongning ilohiy va hayotbaxsh qudrati ishqiy-majoziy ohangda talqin qilinadi.

Sahar vaqtida kim sultoni xovar,
Jamolindin jahon bo‘ldi munavvar.
Olib nayza ilikka xusravi Chin,
Xabash sultonini qavdi jahondin.
Shahi mashriq alam olamga urdi,
Sipohi zangi qo‘rqib yuz o‘shurdi.
Chiqar di ersa shoh xanjar belindin,
Xabash sultoni qochti Rum elindin.
Sipohi turk bo‘ldisa sipoh,
Azimat tutdi hindular sipoh.
Hurusi subhdam faryod oshurdi,
Kecha zoxi yumurtqasin o‘shurdi.

Bu parcha Xo‘jandiyning "Latofatnoma" dostonidan olingan unda sahar obrazining ramziy ma‘nosi, nur va zulmat qarama-qarshiligi tong tasvirining g‘oyaviy yuklamasi ochib berilgan. Bunda Sultonni jamoli tong kabi yorqin holatda tasvirlangan. Sulton yuziga qaraganda tundan keyin tong otganda dunyo yorishib ketgandek tasvirlanadi. Tun tugab, tong otishi esa Chin hukmdori Habash sultonini nayza bilan quvib yurtdan chiqarishi holati orqali aks ettirilgan. Bunda tun Habash sultoniga, tong esa Chin hukmdoriga, tong otishi esa nayza o‘tilishi jarayoniga qiyoslangan. Uchinchi baytda esa Tong nuri qorong‘ilikni chekingani kabi, shoh qudrati ham dushmani chekinishga majbur qiladi. Bu baytda tong — zulmat ustidan g‘alaba timsoliga aylanadi. Keyingi baytda esa quyosh nurlarini sochishi orqali tun ham

chekinishga majbur bo'ldi. Bu esa tong ramziga ega bo'lgan Chin hukmdorining tun ramzida Habash sultonini yengib o'z yurtidan chiqarib yuborishi orqali aks ettiriladi.

Oltinchi baytda go'zal ifoda mavjud, ya'ni tong otishining eng aniq poetik tasviridir. Xo'rozning qichqirishi saharining kelganini bildiradi, tun zulmati esa butunlay chekinadi. Tong hayot va uyg'onish belgisi sifatida beriladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi baytlar orqali tongning go'zal tasviri ochib berilgan. Biz keltirib o'tilgan parchalarda tasvirlangan obyekt bitta, ammo ifoda usuli va talqini turlicha. Bu esa tabiat hodisasi bo'lgan tongning go'zalligini turlicha, turli qirralarini ochib berishga sabab bo'lgan. Bundan tashqari ijodkorning mahorati ham muhim ro'l o'ynaydi. Ya'ni ijodkor so'z boyligi va obrazli fikrlashi orqali oddiy narsa-buyum ham takrorlanmas ifodaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muborak maktublar ("Latofatnoma") Toshkent. 1987- yil.
2. Internet ma'lumotlari.